

**Dezadaptatsiyalashgan o'smirlarni korreksiyalashning psixologik xususiyatlari**

**Odilova S.K.**, Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar **Sobirov.A.A.** psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent.

**Annotatsiya.** Psixologlar pedagog shaxsiga katta e'tibor qaratadilar, chunki zamonaviy masalalarni hal qilishni faqatgina o'smirlar sub'ektliligi bilan ishlashni biladigan pedagog amalga oshirishi mumkin, bunga esa pedagog shaxsiga yuqorida qo'yilgan bir qator talablarga javob bera oladigan pedagoglar erishishlari mumkin.

Ta'lim sub'ekti haqidagi tasavvurlar pedagogning kasbiy pozitsiyasi, ta'lim jarayonlari maqsadlari, mazmuni, metodlari, natijalarini taqozo etadi. Pozitsiyani tushunish bizning tadqiqotimiz maqsadlari uchun ham zarurdir, chunki insondagi o'zini o'zi aniqlashni, ijtimoiy borliqning turli sohalariga kirish uchun tanlangan usullarni aks ettiradi.

Pozitsiya turlari – bu ijtimoiy xulq namoyon bo'lishining odatiy shakllaridir, ya'ni ma'lum vaziyatlarda tizimli yoki nisbatan o'zgarmas namoyon bo'luvchi xulqdir. Pozitsiya turlari statik tasodif emas, balki bir xil (ma'lum vaqt oralig'ida) namoyon bo'ladigan shaxsning ma'lum ob'ektlar yoki ijtimoiy muhit vaziyatlariga xarakterli munosabatidir. Pozitsiya har doim mos keluvchi ijtimoiy ob'ektlarga baholovchi fikr yuritish yoki predmetli-amaliy xatti-harakat ko'rnishidagi munosabatni aks ettiradi. Ularda ob'ektlarga nisbatan shaxsiy munosabat va bu ob'ektning u yoki bu shaxs uchun ahamiyati namoyon bo'ladi. (bizning tadqiqotimiz doirasida bu – pedagogning dezadaptatsiyalashgan o'smirlarga munosabati bilan xarakterlanadi). Dezadaptatsiyalashgan o'smirlardagi "Men" timsolini korreksiya qilish bo'yicha pedagog kasbiy faoliyatini psixologik tahlil qilish jarayonida eng muhimi o'zgaruvchanlik va harakatchanlikdir. Bu haqida olib borilgan tadqiqotlar mazmunini birlashtirish mumkin. Ularga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchi o'zaro ta'siri misolida o'zaro ta'sirning quyidagi ijtimoiy tiplarini ajratish mumkin:

1. "Men" likni anglashga yo'nalgan hamkorlik. Sheriklar o'z "men"ligi asosida faollik ko'rsatadilar.
2. Hamkorlik: Birgalikdagi predmetli-amaliy faoliyat yordamida har bir shaxsning individual maqsadlari va umumiy maqsadlarga erishishga ko'maklashish;
3. Bir tomonlama yo'nalgan hamkorlik. Bunda birgalikdagi predmetli-amaliy faoliyat qatnashchilaridan biri boshqasining maqsadga erishishiga yordam beradi, boshqasi esa u bilan o'zaro ta'sirdan bosh tortadi.
4. Kontrast o'zaro ta'sir: qatnashchilardan biri boshqasiga hamkorlik qilishga harakat qiladi, ikkinchisi esa birinchisiga faol qarshilik ko'rsatish strategiyasini qo'llaydi.
5. Kelishuvga asoslangan o'zaro ta'sir – bunda har ikkala sherik ham hamkorlik va qarama-qarshilikning alohida elementlarini namoyon qiladilar.
6. Bir tomonlama qarshilik, ya'ni sheriklardan biri boshqasining maqsadga erishuviga to'sqinlik qiladi, ikkinchisi esa o'z navbatida birinchi qatnashchi bilan hamkorlik qilishdan bosh tortadi.
7. O'zaro ta'sirdan qochish, ya'ni har ikkala sherik ham o'zaro ta'sir ko'rsatishdan qochishga harakat qiladi.
8. Qarama-qarshi kurash: har ikkala sherik bir-biriga qarama-qarshilik qiladi va har birining individual ijtimoiy jihatdan ahamiyatli maqsadiga erishishida to'sqinlik qiladi.

Mazkur hamkorlikni korreksiyalash asosida ish ko'rish pedagog kasbiy pozitsiyasida muhim o'rin tutadi. Zero, kasbiy pozitsiya insonning kasbiy kamolotini ifodalaydi, uning doirasida u o'z kasbiy faoliyat konsepsiyasini amalga oshiradi, turlicha, ba'zida qarama-qarshi "xatti-harakat vaziyatlari"da o'zining mehnatga yo'nalganligini ishlab chiqadi. Xulq-atvor

komponentining kasbiy pozitsiya tuzilmasiga kirishi va uning shaxsni ijtimoiy o'zgartiruvchi amaliyotga jalb qilish me'yori sifatida qaralishi shaxsning ijtimoiy-ahamiyatli yo'nalganligi doirasidagi kasbiy pozitsiyasi faolligi darajalari klassifikatsiyasini ishlab chiqish imkonini beradi:

1. Insonning imkoniyatlarini kengaytirish va muayyan kuchlarini rivojlantirishga olib keluvchi faol kasbiy pozitsiya: kasbiy tashabbuskorlik, ijodiy faoliyat, sidqidildan ishlash.

2. O'rta darajadagi faollikda ifodalanuvchi kasbiy pozitsiya: o'z majburiyatlariga mas'uliyat bilan yondashish, lekin butunlay reproduktiv faoliyat.

3. Ijodiy ma'naviy salohiyat bilan birga passiv kasbiy pozitsiya: past darajadagi faollik, lekin u o'z ichiga tashabbuskorlik ehtimolini – ijtimoiy tajribasizlik, "sog'lom" asosga ega bo'lgan konformizm, hali bilimlar ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlanmagan yaxshi niyatlarni oladi.

4. Salbiy ma'naviy salohiyat bilan birga passiv kasbiy pozitsiya: past darajadagi faollik, ijtimoiy ixlossizlik, kasbiy uzilishlar asosidagi inertlik, skeptitsizm, konformizm.

5. Salbiy kasbiy faoliyat, uni turli jadallikdagi yolg'on faollik sifatida baholaydilar: demagogiya, ikkiyuzlamachilik va h.k.

Pedagogning kasbiy pozitsiyasida asosiy jihat, bizningcha, dezadaptatsiyalashgan o'smir shaxsini boricha qabul qilishdir, bu degani uning individual o'ziga xosligini va o'z "men"ini namoyon qilish huquqini rivojlanishning o'sha darajasida tan olishdir, ya'ni uni jamiyat va ota-onalar tomonidan tashkil etilgan tarbiya uchun ayblamaslikdir. O'smirni boricha qabul qilish uning individual o'ziga xoslikka ega bo'lish huquqini va mazkur vaziyatda ijtimoiy-psixologik holatlar va avvalgi hayotning butun tarixi mahsuli sifatida idkrok etishni tan oladi. Ob'ektiv borliqqa ko'ra u aynan shunday, boshqacha emas. Bu bilan o'smirni shaxsiy rivojlantirish korreksiyasi inkor etilmaydi, lekin bu tashkillashtirilgan faoliyat jarayonida – shaxsning yangi tuzilmasi, uning ilgari mavjud bo'lmagan xislatlarga ega bo'lish faoliyatida amalga oshadi.

Asosida boshqa odam manfaatlarini hisobga olish yotadigan gumanistik g'oyani amalga oshirish uchun pedagoglar quyidagi kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir:

- O'quvchilar bilan muloqot davomida asosiy e'tiborni faoliyat predmeti va munosabatlarga qaratish lozim – ana shunda individual o'ziga xosliklar faqatgina birgalikdagi ishga halaqit berishdan to'xtab qolmay, balki o'zaro ta'sirlarga kutilmagan xususiyatni berishi mumkin;

- Har bir insonning (ham o'quvchi, ham pedagogning) fikrlari, didlari, qobiliyatlaridagi o'ziga xoslikni tan olishdan foydalanish – bunda muloqot jarayoni qiziqarli bo'ladi, birgalikdagi faoliyat qatnashchilari fikrini bir joyga jamlash ham osonlashadi;

- Tarbiyalanuvchini ochiq baholashga yo'l qo'ymaslik, ko'proq yuz berayotgan hodisaga o'z munosabatini bildirish, bunda dezadaptatsiyalashgan o'smirdagi o'ziga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi, uning o'zini o'zi baholash tizimi ortadi.

Biz o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir ko'proq dars jarayonida yuz beradi, degan fikrdan kelib chiqqan edik. Pedagogning dezadaptatsiyalashgan o'smirlar psixokorreksiyasi bo'yicha olib boradigan ishlarini psixologik kuzatish darsga mazmunli instrument sifatida qarashni o'z ichiga olishi kerak. Mazkur holatda psixologning vazifasi pedagogga o'quvchiga nisbatan individual shaxslilik yondashuvni amalga oshirishga yordam berish bo'lib, bunda pedagog ontogenezning mazkur davri psixik va shaxslilik rivojlanish me'yorlariga o'z qarashlarini namoyon qilishidan foydalanish zarur. O'qituvchining pedagogik pozitsiyasi pedagogik jarayondagi o'zaro ta'sir xarakterini, maqsadlar shakllanishi, mazmunni

o'zlashtirish, usulni egallash, shuningdek pedagoglar tomonidan dezadaptatsiyalashgan o'smirning hayot yo'lidagi shaxs sifatida rivojlanish xususiyatlarini oldindan prognozlashtirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar**

1. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida 3-qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha nashr tarjimasi. - Toshkent.: O'qituvchi. 2012.
2. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. A.I.SHcherbakov tahriri ostida- T.: O'qituvchi, 2004.
3. Shoumarov G.B. Psixologiya fani: Yangiliklar, muammolar, yechimlar. "Ma'rifat"ro'znomasi, 12 oktyabr', 2003.
4. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – T.: Noshir, 2010

